

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN LOTIN TILI  
VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Lotin tili va tibbiy terminologiya fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Lotin tili va tibbiy terminologiya**

1. Otlarning I va II guruhda turlanishi.
2. Otlarning III guruhda turlanishi.
3. Sifat. I-II guruh sifatlari.
4. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi.
5. Fe‘l. Fe‘l mayllari.
6. Otlarning IV va V guruhda turlanishi.
7. Dori nomlari yasashida qo‘llaniladigan ma‘noli qismlar.
8. Klinik atamalarning yasalishi. Yunon-lotin dubletlari.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T /r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Testlar soni
1	Otlarning I va II guruhda turlanishi.	Lotin tili terminologiyasida otlarning turlanishi to'g'risida, qoidadan tashqari holatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shuningdek 1- va 2- guruh otlariga kiruvchi so'zlarni bilishi lozim. 1- va 2- guruh otlarini yasovchi qoshimchalarni yoddan bilishi lozim	8 ta
2	Otlarning III guruhda turlanishi.	Lotin tili terminologiyasida otlarning 3 guruhda turlanishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, 3 guruh otlarining masculinum, femininum va neutrum rodlariga kiruvchi so'z yasovchi qo'shimchalar va sozlarni yoddan bilishi lozim.	8 ta
3	Sifat. I-II guruh sifatleri.	Sifat so'z turkumi va I-II-guruh sifatleri to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. I-II-guruh sifatlerining rod qo'shimchalari to'g'risida bilishi kerak. Sifatga xos so'zlarni tuslay olishi va yoddan bilishi lozim.	4 ta
4	Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi.	Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi ishtirokidagi anatomik, klinik va farmatsevtik so'z birikmalarini tarjima qila olishi va qo'shimchalarini to'g'ri qo'llashni bilishi kerak.	6 ta
5	Fe'l. Fe'l mayllari.	Fe'l so'z turkumi va fe'lning mayllari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Fe'l mayllarini hosil qiluvchi qo'shimchalari to'g'risida bilishi kerak. Fe'l ga xos sozlarni tuslay olishi lozim. Retsepturada ishlatiladigan fe'llarni bilishi kerak.	2 ta
6	Otlarning IV va V guruhda turlanishi.	IV- va V- guruh otlariga kiruvchi so'zlarni turlanishi, qoidadan tashqari holatlar to'g'risida bilishi kerak. IV- va V- guruh otlarini yasovchi qoshimchalarni yoddan bilishi lozim.	2ta
7	Dori nomlari yasalishida qo'llaniladigan ma'noli qismlar	Lotin tilida dori nomlarini yasalishida qo'llaniladigan ma'noli so'zlarni topa olishi kerak. Oddiy va murakkab dori nomlarini, farmatsevtik guruhlar nomini hosil qilishni bilishi kerak	4ta
8	Klinik atamalarning yasalishi. Yunon-lotin dubletleri.	Lotin tilida dori nomlarini yasalishida ma'noli so'zlarni topa olishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bu so'zlarning bir-biriga bog'liqligini bilishi kerak.	6ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
-----	-----------------	-------	------------

1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. M.N. Boliyev. Lotin tili va meditsina terminologiyasi . Toshkent-ILM ZIYO -2017

2. M.H. Болиев, Я.Н. Алляров. Латинский язык и медицинская терминология. Национальное общество философов Узбекистана, 2012г.

3. M.N. Boliyev. Lotin tili va meditsina terminologiyasi . Toshkent-ILM ZIYO -2012

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*